



XORAZM DOSTON SAN'ATI: USLUBIY VA BADIY XUSUSIYATLAR

Davletmuratova Amangul

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqqa san'ati instituti III bosqich talabasi

Asatilla Sunnatillayev

Ilmiy rahbar, UzMMSI "Doston
ijrochiligi" kafedra dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm dostonchilik maktabining o'ziga xos badiiy-musiqiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Xorazm dostonlarining musiqiyliigi, ravon avjlari, cholg'u muqaddimalari, parda va tovushqatorlar o'zgarishi orqali boshqa uslublardan farqlanishi ochib beriladi. Maqolada "Shirvoniy" va "Eroniy" maktablarining asosiy jihatlari, ularning doston ijrosidagi yondashuvlari, baxshilar repertuaridagi farqlar, nomalar bilan ishlash madaniyati hamda musiqiy asboblarning vositasidagi ijro uslublari qiyosiy yondashuv asosida ko'rsatib o'tilgan. Material Xorazm dostonchiligini umumturkiy og'zaki an'ana kontekstida baholashga imkon beradi.

Kalit so'zlari: Doston, baxshi, ijrochilik, an'analar, ma'naviyat, musiqqa.

O'zbek dostonchilik san'ati – qadim va bebaho ma'naviy meros namunasi. Xalq og'zaki ijodi va san'ati insoniyatning ma'naviy yetukligida muhim o'rin egallaydi. Barcha san'at turlarining shakllanishida xalqning og'zaki ijodiyoti poydevor vazifasini bajargan. Insoniyat yaratilgan ilk davrlardan boshlab bugungi kungacha adabiyot, qo'shiqchilik kabi san'at sohalarida xalq ijodi namunalariga tayangan. Ushbu bebaho boyliklar ichida esa eng yuksak badiiy ko'rinish – bu baxshichilik san'atidir. San'at nafaqat inson tafakkuri va



dunyoqarashini boyitadi, balki uni ezgulik, go‘zallik va yaxshilik sari yetaklaydi. Inson hayotini kuy va qo‘shiqsiz tasavvur etish mushkul. Chunki san‘at – bu inson ma‘naviy olamining ajralmas bir qismi, ijodkorlik va bunyodkorlikka undovchi kuchli va ilhomlantiruvchi vositadir [1. 43].

Hozirgi kunda baxshichilik va dostonchilik san‘atini yurtimizda hamda xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib etish, tajribali ustoz baxshilar, dostonchilar va soha mutaxassislari bilan birga, iqtidorli yosh avlod vakillarini har tomonlama moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-sonli qaroriga muvofiq, baxshichilik va dostonchilik san‘atini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan 2018–2022-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan. Ushbu “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalarning to‘laqonli va samarali ijrosini ta‘minlash, tegishli vazirlik va idoralar, shuningdek, hududiy davlat boshqaruv organlari faoliyatini tizimli asosda muvofiqlashtirib borish ko‘zda tutilgan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng yuksak shakllaridan biri bo‘lgan baxshichilik va dostonchilik san‘ati, xususan Xorazm maktabi doirasida shakllangan noyob badiiy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Bu san‘at turini asrab-avaylash, uni zamon ruhiga mos ravishda rivojlantirish va keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 1-noyabr kuni “Xalqaro baxshichilik san‘ati” festivalini tashkil etish bo‘yicha qaror chiqardi. Mazkur qarorda nafaqat an‘anaviy baxshichilik tadbirlarini o‘tkazish, balki ilmiy-amaliy uchrashuvlar, ijodiy muloqotlar hamda xalqaro darajadagi ilmiy konferensiyalar o‘tkazish zarurligi ta‘kidlandi.

Shu munosabat bilan “Jahon sivilizatsiyasida baxshichilik san‘atining o‘rni” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjuman, dostonchilik san‘atini chuqur ilmiy o‘rganish, turli xalqlar og‘zaki ijodi bilan solishtirish, madaniy va ma‘naviy sohalarda xalqaro hamkorlikni kengaytirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Bu kabi tashabbuslar,



ayniqsa Xorazm dostonchilik an'analarini ilmiy tahlil qilish va ularning o'ziga xos uslubiy-badiiy xususiyatlarini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xorazm dostonchilik san'ati boshqa hududiy dostonchilik an'alaridan avvalo o'zining yuqori musiqiyligi, qo'shiq matnlarining keng ifodaviy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bu dostonlar ko'plab turkiy xalqlar an'anasiga o'xshash tarzda, ravon avjlar, yorqin cholg'u muqaddimalari, parda va tovushqatorlar o'zgarishi kabi musiqiy xususiyatlar bilan boyitilgan. Xorazm maktabining eng diqqatga sazovor jihatlaridan biri — bu maktabga xos betakror sheva, murakkab va boy, ayni vaqtda umumturkiy madaniyatga mansub adabiy-musiqiy ifoda uslubidir. [2. 45]

Xorazm baxshichilik an'alarida ijro etiladigan "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Baziryon" kabi dostonlar tarkibidagi kuy va qo'shiqlar o'zining san'at darajasi jihatidan maqom yoki boshqa xalq qo'shiqlaridan aslo past emas.

Bu maktab ichida ikki asosiy uslubiy yo'nalish ajralib turadi: "Shirvoniy" va "Eroniy" uslublar. Har ikkisi ham ayrim farqlarga ega bo'lishiga qaramay, umumiy jihatdan baxshilar o'z ijodida barqaror musiqiy matnga asoslanadi. Ular hikoyaning bir qismini og'zaki so'zlab, navbat qo'shiqqa kelganda she'rni badiihalab ijod qilishdan ko'ra, avvaldan yod olgan musiqiy matn asosida kuylashadi. Ba'zi hollarda ular qo'lyozmalarni yonlarida olib yurib, doston ijrosi vaqtida undan foydalanadilar. [3. 66]

Shirvoniy uslubdagi baxshilar dostonlarda ishlatiladigan noma (qo'shiq matni) nomlarini yaxshi bilsalar-da, bu ma'lumotlarni odatda sir saqlaydilar. Bunga qarama-qarshi ravishda, eroniy yo'nalish vakillari esa ba'zida doston davomida noma nomini ham ochiq aytib o'tadilar. Ijro uslublari jihatidan ham farqlar mavjud: Shirvoniy baxshilar asosan dutor, bulomon, g'ijjak va doira jo'rligida doston aytadilar, eroniy maktab vakillari esa dostonni odatda faqat dutor jo'rligida ijro etadilar.

Shuningdek, eroniy uslubning o'ziga xos tomonlari qatoriga dramatik ohang, soddaligi, vazmin ijrosi va sakrama harakatlarning kamligi kiradi. Bunda baxshi ba'zan



yakkanavozda, sozanda ishtirokisiz sahnaga chiqib, doston kuylashi ham mumkin. Bunday hollarda ijroning ichki hissiy kuchi va musiqa ohangi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazm dostonchiligi rivojiga Ahmad baxshi, Qurbonnazar Abdullayev (Bola baxshi), Ro‘zimbek Murodov, Qodir baxshi Jumaniyozov, Otaxon baxshi Matyoqubov, Jumaboy Xudayberganov, Qalandar baxshi Normetov, Norbek baxshi Abdullaev kabi ,baxshilarning hissasi kattadir.

Xorazmda o‘ziga xos baxshichilik maktabini yaratgan insonlardan biri Qurbonnazar Abdullaevdir (Bola baxshi). Qurbonnazar Abdullaev “Avazxon”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Go‘ro‘g‘li”, “Bozirgon”, “Xirmon dali”, “Oshiq Mahmud”, umuman 40 ga yaqin dostonlarni yoddan bilgan. Qurbonnazar Abdullayevga (Bola baxshi) 1938 yilda “O‘zbekiston xalq dostonchisi” unvoni berilgan. Bunday unvonga u O‘zbekistonda birinchi bo‘lib sazovor bo‘lgan edi. [4. 78]

Xulosa qilib aytganda, zamonlar o‘tib texnika odamlar hayotiga chuqur kirib borsada, baribir inson milliy ma’naviyatga suyanadi. Folklor san’atimiz o‘tmish, bugun va kelajak. Xalqimizning o‘ziday donishmand, ulug‘ va boqiy bu meros o‘zbek nomini har yerda va har doim ulug‘laydi. Chunki asl folklor asarlari mag‘zida inson kamoloti uchun xizmat qiladigan g‘oya yotadi. U xalqning boqiy tarixini o‘zida aks ettiradi.

Ushbu noyob san’atning noyob na’munalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ‘ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san’at turiga hurmat va e’tibor tuyg‘ularini kuchaytirish va dunyo xalqlari o‘rtasida xalqaro madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Baxshichilik va dostonchilik san’atininig tarixi, baxshilar va dostonchilar ijodini mukammal o‘rganish, bu borada fundamental tadqiqotlar olib borish, unitilayotgan dostonlarni qayta tiklash, va kelajak avlodga yetkazish lozimdir.

Baxshilar ijrolarini audio, video tasmlariga yozib olish, ular ijodini kitob holiga keltirish, Xorazm dostonlarini notaga olish, shu dostonlardan imkon darajasida filmlar yaratishni yo‘lga qo‘yish, dostonchilik maktablarini rivojlantirishdagi asosiy vazifalardan



biridir. Zero, adabiyot, she'riyat, musiqa va tomosha kabi birqancha san'at turlarini o'zida mujassam etgan dostonlar tarbiya vositasi bo'libgina qolmasdan, madaniy merosimizning noyob durdonasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matyoqubov B. "Xorazm doston ijrochiliginig zarxat sahifalari". – Xorazm. Urganch nashriyoti. – 1999.
2. Jabborov I. "Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani".– Toshkent. O'zbekiston nashriyoti.- 2012.
3. Matyoqubov B. "Doston navolari". – Toshkent. "BUILDING PRINT" nashriyoti. –2009.
4. Sarimsoqov B. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi". – Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. - 1990.